


S.A.TOSHTEMIROVA, D.B.AHMADJANOV

MARKAZIY OSIYO XONLIKLARI TARIXSHUNOSLIGI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAYLIM VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

S.A.Toshtemirova, D.B.Ahmadjanov

**MARKAZIY OSIYO
XONLIKLARI
TARIXSHUNOSLIGI**

5110600 – Tarix yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TAYLIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«ZEBO PRINT»
TOSHKENT – 2022

UO'K: 631.4(075)
K BK: 40.3ya7

S.A.Toshemirova, D.B.Ahmadjanov
Markaziy osiyo xonliklari tarixshunosligi. (O'quv qo'llanma). – T.: "ZEBO PRINT" nashriyoti, 2022. – 212 bet.

Mazkur o'quv qo'llanmada Markaziy Osiyo xonliklari tarixi tarixshunosligi fanining maqsad va vazifalari umumlashtirilgan bo'lib, unda asosan mazkur fanni o'qishga qo'yilgan talablar, tarixiy voqealarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish va tahlil qilish, Markaziy Osiyoda xonliklarning tashkil topgan davridan boshlab mustaqillik yillarigacha yaratilgan asarlar, ilmiy tadqiqotlar, monografiya va boshqa nashrlarning tarixiy bilimlar rivojlanishiga qo'shgan xissasi, mazkur manbalarining haqoniyligi, undagi fikrlarning xilma-xilligi, tarixiy shaxslar va voqealarni baholash, tarixiy bilimlarni to'plash va o'rganishda tarixiy tamoyillarga asoslangan holda xulosa chiqarishga qaratilgan masalalar keltirib o'tilgan.

Qo'llanmada Markaziy Osiyo xonliklari tarixi tarixshunosligi fani bo'yicha tarixiy davrlarga tasniflangan holda, asosan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixi tarixshunosligiga oid ma'lumotlar o'rin olgan bo'lib, bu talabalarda muayyan tarixiy davrga oid manbalar, monografiyalarni, ilmiy tadqiqotlar, ilmiy maqolalar va boshqa ilmiy adabiyotlarni tarixshunoslik asosida tahlil qila olish, ularga o'z munosabatini bildirish, fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni o'zlashtira olish, birinchi va ikkinchi darajali manbalarni turkumlay olish, tahlil natijalari asosida tarixiy vaziyatga to'g'ri va xolisona baho bera olish kabi kompetensiyalarni shakllanishiga xizmat qiladi, shuningdek, unda keltirilgan savol va topshiriqlar talabning mustaqil va nooddiy mushoxada yuritishiga yo'naltiradi, buning natijasida talabalar kreativ fikrlash ko'nikmalari yanada takomillashadi.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari tarix ta'limi (5110600 – Tarix) yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalari, shuningdek umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Tagirizchilar:

Z.Saidboyev – Tarix fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston Milliy Universiteti) tarbiya va sport universiteti)
U.X.Jumayev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston davlat jismoniy O.Jaynarov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Chirchiq davlat pedagogika universiteti)

ISBN 978-9943-8554-5-8

KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini har tomonlama xolis va ilmiy yoritishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. O'zbekistonning qadimgi davrdan mustaqillik yillarigacha bo'lgan tarixini daliliy manbalar asosida tahlil qilish, tarixiy bilimlarning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan tarixnavislikni talabalar tomonidan yanada kengroq o'rganilishi bugungi kunning dolzarb masalaridan biridir. Aynan shu masalalar tarixshunoslik fani doirasida bajariladi, tarix fanining shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarini tahlil qilishni nazarda tutgan holda, mahalliy va xorijiy tarixchilarning tarixiy tushunchalari bilan tanishish orqali o'quv materialini o'rganish, ularning tarixiy asarlarini tahlil qilish amalga oshiriladi.

Tarixshunoslik fani tarix fanlarining barcha sohalar bilan bog'liq bo'lib, tarixiy bilimlarning rivojlanishida dastlabki tarixshunoslik manbalari, jumladan, doston, rivoyat, afsonalar, ilmiy-tarixiy adabiyotlar, tadqiqotlar, yozishmalar, qo'lyozmalar, esdaliklar katta ahamiyatga ega. Tarixshunoslik fanining hozirgi bosqichda tarixshunoslik tarixini o'rganish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular asosan mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar bilan oldindan belgilab qo'yilgan. Ushbu o'zgarishlar tarixchilardan O'zbekiston tarixiga yangi nazariy va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishda, kontseptual yondashuvni aniqlashda, mamlakatimizda falsafiy va tarixiy fikr tajribasini chuqurroq o'rganishda yanada muhim sa'y-harakatlarni talab qildi.

Tarixshunoslik fanining asosiy maqsadi talabalarda tarixiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, tarix fanining to'plagan tajribasini umumlashtirish, baholash, sharhlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Tarixshunoslik fani tarix fanining shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. O'quv materialini o'rganish mahalliy va xorijiy tarixchilarning tarixiy tushunchalari bilan tanishish, ularning tarixiy asarlarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Fan doirasida mamlakatimizda tarix fanining rivojlanish xususiyatlari va tarix fanining tarixini bosqichma-bosqich o'rganishni nazarda tutuvchi xronologik-muammoviy usullardan keng qo'llanilgan holda ijodiy yondashish maqsadga muvofiq. Shu bilan bir qatorda, mazkur fanni o'qitishda davrlashtirish, qiyosiy-tarixiy, retrospektiv kabi boshqa usullar ham keng qo'llaniladi. Tarixchilarning asarlarini tarixshunoslik tahlili tarixiy bilimlar haqiqatini aniqlashning yo'llaridan biridir. Bu tarixchilarning qaysi xulosalari keyingi avlodlari tomonidan rad etilganligini yoki inobatga olinganligini aniqlash imkonini beradi, shuningdek, u yoki bu olimning mamlakatimiz tarix faniga qo'shgan haqiqiy hissasini aniqlash imkonini beradi.

Qo'llanmada O'rta Osiyo xonliklarining tarixshunosligiga katta ahamiyat berilgan, xonliklar tarixining mahalliy va xorijiy tarixchilar talqinida yoritilishi, xonliklarning davlat boshqaruvi, iqtisodiy-ijtimoiy tarixiga doir asarlar tahlili keltirilgan.

O'z fanining tarixini bilish tarixchining kasbiy kompetensiyasiga o'z hissasini qo'shadi, unda oldingi avlod tadqiqotchilari tajribasida to'plangan barcha dalillarga ehtiyojkorlik bilan munosabada bo'lishni shakllantiradi. Mazkur fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirish natijasida talabalardagi kasbiy kompetensiyalari takomillashadi, ularning kreativligi rivojlanadi. Bularning barchasi pedagogika sohasidagi tarix yo'nalishi talabalarining fanlarni chuqurroq o'rganishida shu kabi qo'llanmalarni nashr etilishi lozimligini belgilab qo'ydi, ularda O'zbekiston tarixi fanining tarixiga yangicha qarashlar va u yoki bu tarixchining tarixshunoslikka qo'shgan hissasiga yanada ko'proq e'tibor qaratishga, bu manbalarni chuqurroq tahlil qilishga harakat qilindi.

Darhaqiqat shuni yodda tutish kerakki, tarixchilarning asarlarini bilmasdan turib, ularning tarix faniga qo'shgan hissasini ham, O'zbekistonda tarix fanining rivojlanish jarayonini ham ob'yektiv baholash mumkin emas. Tarixshunoslik faniga qo'yiladigan talablar O'zbekiston tarixini daliliy manbalarga tayangan holda chuqurroq tadqiq qilish, jarayonlarning sabab va oqibatlari bo'yicha tarixiy bilimlardan kelib chiqqan holda o'z fikr-mulohazalarini bildirish, qiyoslash, xulosa chiqarish va ulardan tadqiqotchilikda keng foydalanishga o'rganishdir.

Tarixshunoslik fanini o'zlashtirish natijasida ta'lim oluvchilarda tarixiy bilimlarning mohiyati, shakllari va vazifalari haqidagi bilimlar

shakllanadi, tarixiy jarayoni rivojlanishining zamonaviy kontsepsiyalari o'rganiladi va tahlil qilinadi, tarix fanining shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari hamda milliy xususiyatlari bo'yicha ko'nikmalar takomillashadi. Buning uchun ta'lim oluvchilar tarix, tarixshunoslik nazariyasi va metodikasi muammolarini, tarixnavislik tomonidan qo'llaniladigan asosiy tushunchalar, tarixiy bilimlarning shakllanishiga va tarix fanining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil va hodisalarni bilishi lozim.

MAVZU № 1. MARKAZIY OSIYO XONLIKLARI TARIXSHUNOSLIGI FANI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

1. Markaziy Osiyo xonliklari tarixshunosligi va uning mazmuni
2. Markaziy Osiyo xonliklari tarixshunosligi fanining maqsad va vazifalari

Tayanch soʻz va iboralar: Tarixiy – geografik asarlar, “Shay-boniyoma” “Ubaydullanoma” “Tarixiy Aziziy”, “Tarixiy Muqimxoniy” “Nomai Olamoroʻyi Nodiriy” “Tuxmat Ul-xoniy”, “Gulshan-ul mulk” tanxo, siyosiy tarqoqlik separatizm.

1. Markaziy Osiyo xonliklari tarixshunosligi va uning mazmuni

Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston tarixi har tomonlama xolis va ilmiy yoritila boshlandi. Ayniqsa, oʻzbek davlatchiligi tarixi va uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti jarayonlarida tugʻilgan oʻrinni yoritishga katta eʼtibor berilmoqda. Shubhasiz, oʻzbek davlatchiligi anʼanalarining shakllanishida va taraqqiy etishida muhim oʻrin tugʻilgan davrlardan biri Oʻzbek xonliklari davri hisoblanadi. Gʻarbda Kaspiy dengizigacha, janubda Sharqiy Eron va Afgʻoniston, shimol va sharqda Rossiya imperiyasi hamda Sharqiy Turkiston, Xitoy bilan savdo va diplomatik aloqalar olib borishda qulay geopolitik afzalliklarga ega boʻlgan xonliklar Markaziy Osiyo davlatlari orasida qulay geopolitik mavqega ega edi.

XVI asr boshlariga kelib, Temuriylardan soʻng shakllangan Shay-boniylar sulolasi Movarounnahr, Xuroson va va Xorazmda oʻz hukmronligini oʻrnatgan boʻlsa, qisqa vaqtda u ikki qismga – Buxoro va Xiva xonliklariga, XVIII asrning boshlariga kelib esa, uchinchi davlatga, yaʼni Qoʻqon xonligiga ajraladi. Shu tariqa avval yagona davlat boʻlgan hududda uch xonlik – Buxoro (1510-1920 yy), Xiva (1911-1920 yy) va Qoʻqon (1709-1876 yy) yuzaga keladi.

Xonliklarning oʻzaro va tashqi davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalaridagi aloqalari turli davrlarda turlicha kasb etib, murakkablashib boradi. Ayniqsa, XIX asrning oʻrtalariga kelib,

xonliklarga nisbatan tashqi xavf – Rossiya imperiyasining bosqinchilik xavfi kuchayib boradi. Bir tomondan xonliklarning ichki nizolar oqibatida siyosiy inqirozga yuz tutishi, ikkinchi tomondan Rossiya imperiyasining xonliklar hududlariga harbiy bosqinchilik yurishlarining kuchaytirilishi umumiy ahvoning yanada murakkablashuviga olib keldi. Bu holat nafaqat oʻz vaqtida jahon siyosatchilarining diqqatini, balki koʻplab tarixchilarining diqqatini ham oʻziga jalb etadi. Xonliklarning ichki hayoti va tashqi siyosatdagi oʻrni va faoliyati yuzasidan koʻplab asarlar yaratiladi, tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Turli yillarda yaratilgan tarixiy asarlarda Buxoro, Xiva va Qoʻqon xonliklarining ana shu davrlardagi tarixini, jumladan siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy hayotini yoritib berishga katta eʼtibor berilgan. Biroq bu vaqtgacha yaratilgan asarlarda asosiy maqsad xonliklar tarixining u yoki bu sohasini yoritib berishga qaratilgan boʻlsa-da, ularda masalaga yondashuvning har-xilligi eʼtiborni tortadi.

Bugungi kunda tarix faniga qoʻyilayotgan talablar oʻtmishni sinchiklab oʻrganish, ularni hal etishga boʻlgan yondashuvlar va nuqtai-nazarlarni tahlil etib, ulardan bugungi kun uchun zarur xulosalarni chiqarishni talab etadi. Tarixni oʻrganishga boʻlgan munosabatning turli siyosiy tuzumlar taʼsirida oʻzgarib turishi bugungi kun tadqiqotchilari oldiga uni xolissona tahlil qilish va obʼyektiv ilmiy xulosalar chiqarish kabi katta va masʼuliyatli vazifa qoʻyadi. Bunda eng avvalo ilmiy bilishning asosiy tamoyillari, umumjahon tarix fanining nazariy – konseptual asoslari, milliy istiqlol mafkurasi falsafasiga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻrta Osiy xonliklari tarixshunosligi fani ana shu nuqtai-nazardan aytin tarixiy asarlarning xususiyatlari, asarlar mualliflarining masalaga yondashuvlari va voqealarning yoritilish darajasi haqida hamda tarixshunoslik masalalari haqida soʻz yuritishga harakat qilingan. Bunda oʻzbek xonliklari tarixining tarixshunosligi amaldagi davrlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir davrning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, davrlashtirishni yanada aniqlashtirish maqsadida maʼlum kichik davrlarga boʻlib, tahlil etilgan. Bu oʻzbek xonliklari tarixining tarixshunoslik masalalariga yanada oydinlik kiritadi.

Tarix va tarixiy jarayonlar, siyosiy-tarixiy vaziyat ularning roʻyi berishidagi asosiy sabab va xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishda har tomonlama tahlil qilish tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishida katta